

Narsalarning asl mohiyatini bilishga olib boradigan yo'llar - hissiy anglash, rost xabar va aqldir.

Imom Moturidiy

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريديّة - Матуридизм



ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

Музаффар КОМИЛОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

Уйғун ҒАФУРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Шоазим МИНОВАРОВ – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

Давронбек МАХСУДОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Зоҳиджон ИСЛОМОВ – филология фанлари доктори, профессор

Аҳаджон ҲАСАНОВ – тарих фанлари доктори, профессор

Шовосил ЗИЁДОВ – тарих фанлари доктори, доцент

Жамолиддин КАРИМОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

Махмуд Эрол ҚИЛИЧ (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

Назир Мухаммад АЙЁД (نظیر محمد عیاد) – илоҳиёт фанлари доктори, Ал-Азҳар мажмуаси Ислом тадқиқотлари академияси Бош котиби

Режеп ТУЗЖУ (Recep Tuzcu) – илоҳиёт фанлари доктори, профессор, Салжук университети хузуридаги Имом Мотуридий тадқиқот маркази директори

Аширбек МУМИНОВ – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчisi

Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni) – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Дониёр МУРАТОВ – тарих фанлари номзоди, доцент

Одил ЭРНАЗАРОВ – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Ўзбекистон Республикаси Дин ишилари бўйича қўмитасининг 2023 йил 23 ноябрдаги 04-07/8931-сонли холосаси асосида тайёргланди.



Муассис:

**ЎЗБЕКИСТОН ҲАЛҚАРО ИСЛОМ
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ҲАЛҚАРО
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ**

Бош муҳаррир:
Жамолиддин Каримов,
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:
Зафар Фахриддинов,
*Исломчинослик фанлари бўйича
фалсафа доктори*

Саҳифаловчи:
Зарифжон Арслонов

Дизайнер:
Зарифжон Гуломов

«Мотуридийлик» журнали
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабря Ўзбекистон
Республикаси Президенти Администрацияси
хузуридаги Ахборот ва оммавий
коммуникациялар агентлиги томонидан
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:
Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-й.

E-mail: maturidijournal.uz
Web-sahifa: info@moturidiy.uz
Телефонлар: (+99871) 244-35-21,
(+99871) 244-35-47

МУНДАРИЖА

ИСЛОМШУНОСЛИК

Zohidjon Islamov.

«Муқаддамату-л-адаб» арабча сўзлигининг матний таҳлили..... 5

Ramil Adygamov.

Междисциплинарные подходы в исследованиях истории богословия..... 13

Zafar Fakhreddinov.

«Вужух ва назоир» илмида ижод қилган олимлар ва унга оид асарлар таҳлили 23

Jurabek Chutmatov.

Ҳаким Термизий тафсирининг илк нашри 31

Ahmadkhan Alimov.

Абул Лайс тафсири манбалари ва муфассирнинг услублари..... 42

ИСЛОМ ҲУҚУҚИ

Azat Sarsenbaev, Nurulloh Turambetov.

Бурҳониддин Марғинонийнинг «Ҳидоя» асарида Қуръондан ҳуқуқий манба сифатида
фойдаланиш услуби 51

Muhammadnur Murodkhanov, Khaydarali Yunusov.

Imom Saraxsiy – xalqaro huquqshunos olim..... 59

ДИНШУНОСЛИК

Nigora Yusupova.

Ўзбекистонда давлат қурилиши дунёвийлик принципларига асосланишининг
ҳуқуқий асослари 65

Odiljon Ernazarov.

Shamsuddin Samarcandiying xristianlik haqidagi qarashlari 74

Jurabek Sodikov.

«Ta’vilot ahl as-sunna»da keltirilgan noislomiy din va e’tiqodlarga oid ma'lumotlar tahlili 80

Shahzoda Abduraimova.

Distribution of religious media contents on websites in Germany 90

Behzodbek Soipov.

Жамият ижтимоий-сиёсий барқарорлигини таъминлашда бағрикенглик тамоилиининг
аҳамияти 96

ИСЛОМ ТАРИХИ

Sanabar Djurayeva.

Toshkent viloyati ziyoratgohlarining tasnifi 103

Muhabbatkhan Agzamova.

«Тарих ар-русул ва-л-мулук» асарининг тарихий жараёнларни тадрижий
ёритишдаги аҳамияти 108

Lola Azimova.

Марказий Осиё цивилизацияси ривожида илмий масканларнинг ўрни 115

Oybek Sotvoldiyev.

«Ат-Табақот ал-кубро» асари – сийрат ва тарожимга оид манба сифатида 122

Zarifjon Arslonov.

Alixonto‘ra Sog‘uniy asarlarining ilmiy tasnifi va ularda ko‘tarilgan
mavzular tahlili 130

ИСЛОМ МАНБАШУНОСЛИГИ

Doniyor Muratov.

Арбайн жанри хусусида 139

Akmalkhan Akmalkhanov.

«Miftoh al-ulum» asarida bir harfdan iborat yordamchi so‘zlar talqini 148

Dilfuza Sagdullaeva.

Рабғузий ижодида оятларни қўллашнинг услугубий хусусиятлари 156

Feruza Nizamova.

Dehlaviy ijodida badiiyat an’analari 163

Bahodirjon Azamov.

Ҳаким Термизий «ал-Амсол мин ал-Китоб вас-сунна» асарининг
манбашунослик таҳлили 171

Akmalkhan A. AKMALKHANOV,
Senior Lecturer of the Department of Uzbek
language and classical oriental literature of the
International Islamic Academy of Uzbekistan,
Doctor of Philosophy, (PhD).
A.Kadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: akmalxanovibnahnahmad@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2023/4/19

«MIFTOH AL-ULUM» ASARIDA BIR HARFDAN IBORAT YORDAMCHI SO‘ZLAR TALQINI

INTERPRETATION OF SINGLE-LETTER PARTICLES IN THE WORK "MIFTA H AL-ULUM"

ТОЛКОВАНИЕ ОДНО БУКВЕННЫХ ВСПОМОГАТЕЛЬНЫХ СЛОВ В «МИФТАХУ-Л-УЛУМ»

KIRISH

Yordamchi so‘z turkumi morfologik tomondan anchayin sodda bo‘lib uni boshqa turkumlardan hosil qilinmagan deb aytish mumkin. Sintaktik jarayonlarda ularning vazifalari o‘zidan keyingi so‘z bilan bog‘lanishda namoyon bo‘lib, bu xususiyati ism va fe’l turkumlari ko‘lmlaridan farq qilmaydi. Sintaktik vazifasiga ko‘ra harf ism va fe’l bilan bog‘lanadi va bog‘lanish natijasida har ikkala turkumda sintaktik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shuningdek, harf semantik jihatdan ko‘p vazifani bajaruvchi bo‘lib, kontekstga ko‘ra turli ma’nolarni ifodalab keladi. (Yordamchi so‘z turkumi arab tilida «harf» deb nomlanadi, maqolada o‘rniga ko‘ra har ikkala atama qo‘llanadi).

ASOSIY QISM

Sakkokiy yuqoridagi xos tomonlarni inobatga olgan holda, harf turkumini o‘zgacha usul asosida batafsil yoritadi. O‘ziga xos usulda yondashganligini harflarni guruhlarga taqsim qilganidan ham bilib olish mumkin. Bu borada olim «أنواع الحروف» - yordamchi so‘zlar turlari» mavzusi ostida bahs qiladi (Abbas Hasan, 1973:39a-40a).

Sakkokiy bahsni «Yordamchi so‘zlarga (harflar) to‘xtalsak, ular o‘zidan keyingi so‘zni raf», nasb, jar va jazmda keltira oladi», deb boshlaydi (Abbas Hasan. (1973:39a). Harf vazifasiga ko‘ra ism va fe’l oldidan

keladi. O‘zi bog‘langan so‘zdan keyin kelmaydi. Olim bu harflar alohida turkum bo‘lgani, ma’nno ifodalashi turli bo‘lgani uchun «Ularni quyidagicha guruhlab olibgina tartiblash mumkin. Harflar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Biror sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf (الحرف العامل)

2. Biror sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘lmaydigan harf (غير العامل), deb yozgan edi (Abbas Hasan, 1973:39).

Sakkokiy ularni sintaktik jarayonda ishtirokiga ko‘ra birinchi ikki guruhga taqsimladi. Zamonomiz olimlaridan Mustafa G‘alayaniy ham shu tartibni tutgani holda shu jihatidan ikkiga taqsimlab, sintaktik vazifa bajarmaydigan harfni Sakkokiydek غير العاملة deb emas, balki (faoliyatsiz harf) deb nomlaydi (Muhammad Ali, 1996:689).

Mashhur tilshunoslardan Abulqosim Abdurahmon Suhayliy: «Harflarning har biri aslida biror sintaktik vazifa bajaruvchi hisoblanadi. Gap tarkibida biror vazifa bajarmaydigan harf uchramaydi. Muayyan bir vazifani bajarib keladi», deb aytib, هل قام زيد - (Zayd turdimi?) jumlasini misol keltirib, هل gapda so‘roq ma’nosini ifodalash vazifasida kelayotganini ta’kidlaydi (Fadil Salih, (nashr yili ko’rsatilmagan:59).

Sakkokiy qolgan olimlardan farqli o‘laroq sintaktik vazifa bajaruvchi harfni (الحرف العامل) quyidagi turga bo‘lgani holda «Biror sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf (الحرف العامل) o‘z navbatida ikki turga bo‘linadi. Biri: bir sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf; ikkinchisi: ikki sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf» deb yozgan. (Abbas Hasan, 1973:39a). Bu taqsimot sintaktik jarayondagi faolligiga qarab bo‘lingan edi.

Mahmud Zamaxshariy harf o‘zidan boshqa so‘z bilan bog‘lanmay ma’nno anglatmasligini ta’kidlab, harflar fe’lning ma’nolarini ismga olib boruvchi ekanligini bayon qiladi. Ularni uch guruhga taqsimlaydi. Biri: harflik xususiyatini lozim tutuvchi (كائن); ikkinchisi: ism va harf bo‘lib keluvchi (اسماء و حرفاً); uchinchisi: fe’l va harf bo‘lib keluvchi (كائن) (فعلاء و حرفاً) sanaladi (Mustafa G‘alayiniy, 2010:239).

Mahmud Zamaxshariyning yuqoridagi taqsimoti harflarning qaysi turkumga tegishliligi yoki qaysi turkumdan kelib chiqqanligi bilan bog‘liq hisoblanadi.

MUHOKAMA

Sakkokiy bir vazifani bajaruvchi harflar haqida to‘xtalib, ularning o‘zini: ismlarda sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf; fe’llarda sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf tarzida taqsimlagan

Annotatsiya. «Miftoh al-ulum» asari sohaning boshqa manbalaridan o'zgacha talqin usuliga ega ekanligi bilan farqlanib turadi. Abu Ya'qub Sakkociy asardagi mavzuni alohida yondashuv asosida yozganligini har birida sezish mumkin. Sakkociy yordamchi so'z turkumining xususiyatlarini inobatga olgan holda, mazkur so'z turkumini o'zgacha usul asosida batafsil yozgan. O'ziga xos usulda yondashganligini yordamchi so'zlarni guruhlarga bo'lib bayon qilganligidan ham bilib olish mumkin. Yordamchi so'zlar turkumini Sakkociy - أنواع الحروف - yordamchi so'zlar turlari» mavzusi ostida yoritadi. Da'stavval, mazkur mavzuda yordamchi so'zlarni sintaktik xususiyatlariga ko'ra ikki guruhga bo'lgan bo'lsa, tuzilishi, qaysi turkum bilan kela olishiga ko'ra yana guruhlarga bo'lib, har birini alohida bayon qilgan. Sakkociy o'z ilmiy xulosalariga tayangan holda arab tilidagi yordamchi so'z turkumlarini olti guruhga bo'lib, har birini sintaktik xususiyatini inobatga olgan holda, nomlab chiqqan. Sakkociy tomonidan taqsimlangan yordamchi so'z turkumlarining guruhlari: O'zidan keyingi so'zni qaratqich kelishigida keltiruvchi yordamchi so'zlar (ko'makchi) (حروف الجر), fe'lidan mu'saqil so'z turkumlarini tushum kelishigida keltiruvchi yordamchi so'zlar (الاسم), shart mayli shaklida keltiruvchi yordamchi so'zlar (الحروف الجازمة), fe'llarni istak mayli shaklida keltiruvchi yordamchi so'zlar (نواصي الفعل) (ما ينصب ثم يرفع), tushum kelishigida, so'ngra bosh kelishikda keltiruvchi so'zlar (نواصي الاسم), bosh kelishikda, so'ngra tushum kelishigida keltiruvchi so'zlar (ما يرفع ثم ينصب من الحروف). Yordamchi turkumdag'i so'zlarning tuzilishiga ko'ra turlarga ajratganda, muallif, necha harfsdan iboratlagini mezon sifatida qo'llaydi. Tuzilishiga ko'ra taqsimlangan guruhning birinchisi bir harfsdan iborat yordamchi so'zlar hisoblanadi. Bu kabi yordamchi so'zlarning sintaktik xususiyatlari bilan bir qatorda semantik o'zgachaliklarini bayon qilgan.

Kalit so'zlar: Abu Ya'qub Sakkociy, «Miftah al-ulum», nahv, yordamchi so'zlar, raf', nasb, jar, jazm.

Abstract. "Miftah al-Ulum" differs from other sources of the field in that it has a different method of interpretation. It can be felt in each of them that Abu Ya'qub Sakkaki wrote the subject of the work based on a special approach. Taking into account the characteristics of the particles, Sakkaki wrote this particles group in detail based on a special method. It can also be seen from the fact that the particles are divided into groups. The category of particles is covered by Sakkaki under the topic "أنواع الحروف - types of particles". First, in this topic, particles were divided into two groups according to their syntactic features, and according to their structure, which category they can come with, they were further divided into groups, and each one was described separately. Based on his scientific conclusions, Sakkaki divided the groups of particles in the Arabic language into six groups and named each of them taking into account their syntactic features. Groups of particles divided by Sakkaki are as follows: huruf al-jarr (حروف الجر), nawasib al-ism (نواصي الاسم), al-huruf al-jazima (الحروف الجازمة), particles that first nasb and then raf' (ما ينشب ثم يرفع من الحروف), and particles that first make raf' and then make nasb (ما يرفع ثم ينشب من الحروف). When dividing the particles into types according to their structure, the author uses the number of letters as a criterion. The first group, divided according to the structure, is particles consisting of one letter. He described the syntactic features of such particles as well as the semantic differences.

Keywords: Abu Ya'qub Sakkaki, "Miftah al-yulum", nahw, particles, raf', nasb, jar, jazm.

Аннотация. Произведение «Мифтах ал-улум» отличается от других источников данной области иным методом интерпретации. В каждом из них чувствуется, что Абу Якуб Саккаки написал тему произведения, основываясь на особом воспоминании. Принимая во внимание особенности вспомогательной группы слов, Саккаки подробно записал эту группу слов на основе специального метода. Это видно и из того, что вспомогательные слова разделены на группы. Категория вспомогательных слов рассматривается Саккаки в теме «أنواع الحروف - типы вспомогательных слов». Сначала в этой теме вспомогательные слова были разделены на две группы по их синтаксическим особенностям, а по структуре, к какой категории они могут относиться, далее они были разделены на группы, и каждая из них описывалась отдельно. На основании своих научных выводов Саккаки разделил группы вспомогательных слов арабского языка на шесть групп и назвал каждую из них с учетом их синтаксических особенностей. Группы вспомогательных слов, разделенных по Саккаки: вспомогательные слова, которые передают следующее слово в винительном падеже (комакчи) (حروف الجر), вспомогательные слова, которые приводят группы слов, независимые от глагола в винительном падеже (الاسم), вспомогательные слова в условное наклонение (الحروف الجازمة), вспомогательные слова в повелительном наклонении (نواصي الفعل), слова в сослагательном наклонении, затем в главном соглашении (ما يرفع ثم ينشب من) (ما يرفع ثم ينصب ثم يرفع من), в главном соглашении, а затем в подчиненном активное соглашение (الحروف). При разделении слов вспомогательной категории на типы по строению автор в качестве критерия использует количество букв. Первой из группы, разделенной по структуре, являются вспомогательные слова, состоящие из одной буквы. Он описал синтаксические особенности таких вспомогательных слов, а также семантические различия.

Ключевые слова: Абу Якуб Саккаки, "Мифтах аль-улум", нахв, вспомогательные слова, раф', насб, жар, джазм.

edi (Abbas Hasan. 1973:39a). Bu bo‘linish so‘z turkumlarini inobatga olgan holda amalga oshirilgan bo‘lib, ismlarga xoslangan aksar harf fe’l bilan birga kelmaydi.

Ism va fe’l bilan xoslangan harflar qanday o‘zgarishni talab qilishiga ko‘ra olim fikricha quyidagi guruhlarga bo‘linadi: jar «حرف الجر» (ismning oxirini kasraga (i) yoki fathaga (a) o‘zgartiruvchi) harf (Sakkokiy. Qo‘lyozma 26 Hk 192 raqam:175); nosiba «الحرف الناصب» (ismning oxiri fathaga (a) o‘zgartiruvchi) harf. Fe’llarda sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf ham o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi. Biri: jazm «الحرف الجازم» (fe’lning oxiri sukunga o‘zgartiruvchi) harf; ikkinchisi: nosiba «الحرف الناصب» (fe’lning oxiri fathaga (a) o‘zgartiruvchi) harf (Abbas Hasan. 1973:39a). (Bundan keyingi o‘rnlarda jar, nasb, raf’ va jazm so‘zlari qo‘llaniladi. Bu tushunchalar ismga oid bo‘lganda kelishik, fe’lga oid bo‘lganda maylni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan raf’-bosh kelishik va xabar mayli; nasb-tushum kelishigi va istak mayli; jazm-shart mayli; jar-qaratqich kelishigi. Bu ham aynan mos tushuvchi ekvivalent hisoblanmaydi. Ko‘p jihatdan mos kelgani uchun shu so‘zlar ishlataldi).

Ismni tushum kelishigida keltiruvchi harf (الحرف الناصب) bilan fe’lni istak maylida bo‘lishini talab qiluvchi harf (الحرف الناصب) ayni bir harf hisoblanmaydi.

Bir vaqtning o‘zida ikkita sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harflar haqida: «Ikki sintaktik o‘zgarishga sabab bo‘luvchi harf ham ikki guruhga bo‘linib, biri: nasbga keyin raf’ga o‘zgartiruvchi harf; ikkinchisi: raf’ga keyin nasbga o‘zgartiruvchi harf» deb aytgan Sakkokiy (Abbas Hasan, 1973:39a).

Olim bunday bo‘lib olishdan keyin xulosa o‘laroq ularni olti guruhga taqsimlab olish mumkinligini aytadi. Ular:

Jar qiluvchi (حروف الجر)
Ismlarni nasb qiluvchi (نوابض الاسم)
Jazm qiluvchi (الحروف الجازم)
Fe’llarni nasb qiluvchi (نوابض الفعل)
Nasb qilib, so‘ngra raf’ qiluvchi (ما ينصب ثم يرفع)
من الحروف

Raf’ qilib, so‘ngra nasb qiluvchi
(ما يرفع ثم ينصب من الحروف). (Abbas Hasan. 1973:39)
Bu guruhlarga taqsimlash harflarning o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan sintaktik munosabatiga ko‘ra hisoblanadi. Sakkokiy taqsimlagan bu guruhlar ism va fe’l turkumlariga oid bo‘lib, ularidan jar faqat ismga xoslangan bo‘lsa, jazm fe’lga xoslangan hisoblanadi. Raf’, nasb esa har ikkala turkumga oiddir.

Ibn Ya’ish harflarning o‘rniga ko‘ra ism bilan bog‘lanib, unga faqat aniqlik ma’nosini (الكاتب-ma’lum

yozuvchi) beruvchi, fe’l bilan bog‘lanib, qo‘srimcha ma’no beruvchi - (قد كتب) - yozib bo‘ldi(larga ajratadi. قد harfi ا ل dek, fe’lga qoshimcha ma’no beryapti. Uchinchisi faqatgina gapga qo‘siluvchi هل، أ - أنت كاتب (sen yozuvchimisan?) ajratadi (Abu Bishr Amr ibn Usmon, 1998:450).

Ibn Ya’ishning bu taqsimoti harflarning so‘zga morfologik jihatdan ta’siri va semantik jihatdan ma’noda o‘zgarish borligiga asoslangan.

Bu harflar orasida eng ko‘p qo‘llaniladiganlari bu ismlarga qo‘silib, uni kasraga yoki kasra o‘rnida kelgan fathaga o‘zgarishiga olib keluvchi qaratqich kelishigini talab qiluvchi ko‘makchilar (حروف الجر) hisoblanadi. Mazkur faslda yuqoridagi turlardan tanlab olingan ko‘makchilar (حروف الجر) yoritiladi (Bahs davomida «harfi jar» birikmasi o‘rniga ko‘ra «harf», «yordamchi so‘z», «ko‘makchi» tarzida qo‘llangan).

Bu kabi ko‘makchilar faqatgina ism bilan bog‘lanib, ism va ko‘makchi o‘rtasiga faqatgina ko‘rsatish olmoshigina qo‘silishi mumkin, qolgan holatlarda ism va ko‘makchi o‘rtasiga biror so‘z tusha olmaydi.

NATIJA

so‘zning oxirini kasra (i), ikki kelishikli (غير المنصرف) so‘zlarda fathaga (a) o‘zgartiruvchi harflar

Bu turga harflar «jar qiluvchi harf» (حروف الجر), «qo‘suvchi harf» (حروف الإضافة), «sifat harfi» (الصفة), «qaratqich kelishigi harfi» (الخص) deb nomalanadi. «Qo‘suvchi harf» (حروف الإضافة), «sifat harfi» (حروف الصفة) deb nomlash Kufa tilshunoslik mактабига xos hisoblanadi (Muhammad As’ad Nadiriy, 1997:165). Sakkokiyning bu harflarni tarzida berishi Basra tilshunoslik maktabi namoyandalarining tarafdoi ekanligini ko‘rsatib keladi.

Sakkokiy jar harflari soni haqida to‘xtalib, ular haqida: «Bularning soni o‘n to‘qqizta bo‘lib, ismlar bilangina birga keladi» deb aytgan.

Yordamchi so‘zlearning bu turining soni nechtaлиgi borasida turli xillik mavjud bo‘lib, (Mahmud Zamaxshariy Mustafa G‘aloyiniy, 2010:239) o‘n yettita, Ibn Hishom Ansoriy (Ali Rida, 2000:250), Mustafa G‘aloyiniy (Muhammad Ali, 1996:613) va Hasan Abbas (Mahmud ibn Umar Zamaxshariy, 2013:25) yigirmata deb aytganlar.

Sakkokiy bu yordamchi so‘zlearning tarkibidagi harflar soniga qarab ikki turga bo‘lib, bir harfdan tashkil topganlarini «sodda» (بسيط), bir harfdan ortiq bo‘lgan shaklga ega bo‘lganlarini «murakkab» (مركب)

deb nomlaydi (Abbas Hasan, 1973:39a). Bunday bo‘linish soddadek tuyulsada, imlo va talaffuzda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Misol uchun: ﴿أَنْتَمْ عِبَادُ اللَّهِ﴾ (sizlar Alloh bandalarimisiz?).

Sodda (bitta harfdan iborat bo‘lgan) jar harflariga olim quyidagi oltita so‘zni kiritadi, ular: ڭ - (-dek, kabi), ڭ - (-ning, uchun), ب - (bilan, vositasida), ت - (qasamni ifodalovchi tā), م - (qasamni ifodalovchi mīm), و - (qasamni ifodalovchi vāv) (Abbas Hasan, 1973:39b).

Qolgan olimlardan farqli ravishda Sakkokiy bu yordamchi so‘zlarni o‘n to‘qqizta deb aytishi م - (qasamni ifodalovchi mīm) harfini kiritishi bilan bo‘lgan. Qolgan olimlar e’tiboridan ushbu yordamchi so‘z chetda qolgan.

Yigirmata ekanligini ta’kidlagan olimlar yordamchi so‘zlarga Huzayl lahjasidagi مى - (qachon, qachonki) va Uqayl lahjasidagi لعل - (koshki) so‘zlarini kiritadilar.

Sakkokiy dastavval sodda jar harflarini bayon qilishdan boshlaydi. Birinchi bo‘lib, o‘zi ma’no jihatdan bog‘langan so‘zga qo‘shilib yoziluvchi ڭ - (-dek, kabi) o‘xshatishni ifodalovchi harfni bayon qiladi. Misol sifatida quyidagilarni keltiradi: ﴿كَذَا كَرِيْدَ أَخْوَكَ﴾ (Zaydga o‘xshagan sening akang) (Abbas Hasan, 1973:39b).

Ushbu harf to‘rt ma’noni ifoda etib, shu ma’nolardan keng qo‘llanadigan bu «o‘xshatish» (تشبيه)dir.

Sakkokiy gap tarkibidagi o‘rnii borasida «Bu harf ziyoda va ziyoda qilinmagan bo‘lishi mumkinligini aytib, «kesim (raf) bo‘lib kelishi» o‘rnida kelishi mumkinligini ta’kidlab, misol sifatida: لـى علـيهـ كـذا درـهـماـ (mening unda shuncha dirhamim bor) gapini keltiradi. Ushbu jumladagi ڭ - (shuncha) tarkibidagi ڭ bahs qilinayotgan so‘z bo‘lib, kesim o‘rnida kelmoqda. Qoidaga muvofiq kesim bosh kelishikda (raf)da kelishi kerak, shuni inobatga olgan holda Sakkokiy uni «raf» o‘rnida» deb aytmoqda (Abbas Hasan, 1973:39b).

Keyingi kelishikdagi o‘rniga to‘xtalib, bu haqda «Nasb o‘rnida keladi, misol uchun: لـى كـمـثـهـ شـيءـ (Unga juz‘iy yoki to‘la o‘xshagan hech narsa yo‘q (Shuro surasi, 11-oyat) jumlasini keltiradi (Abbas Hasan, 1973:39b), لـى - (emas, yo‘q) yordamchi fe‘li jumlada kelsa, bosh bo‘lakdan boshqa so‘zlar tushum kelishigi (nasb)da keladi. Shunga ko‘ra olim uni «nasb o‘rnida» deb ta’kidlayapti. Aslida bu o‘rinda ڭ harfi ta’kid ma’nosida kelmoqda. Chunki, مـثـلـ ning, ڭ so‘zining ham ma’nosи «o‘xshash»dir. e’tibor qaratilsa, ikkita o‘xshash bo‘lib qolmoqda. Bo‘lib ham misol Qur’onda kelyapti. Mufassir olimlar bu o‘rinda ikkita

«o‘xshash» ma’nolarini bir-biridan farqlaydilar (Xalil ibn Ahmad, 2001:70). مـثـلـ - (o‘xshash) so‘zi birorta narsa ikinchi narsaga juda ham o‘xshash o‘rinlarda qo‘llanadi. ڭ - (o‘xshash) so‘zi esa, qaysidir jihatidan o‘xshashlik bor o‘rinlarda qo‘llanadi. Shuning uchun ham زـيـدـ كـالـأـسـدـ (Zayd sherdek, ya’ni shijoatli, jasur ma’nolarida) shaklida qo‘llanib, زـيـدـ مـثـلـ الـأـسـدـ shaklida qo‘llanmaydi. Oyatdagagi ma’noni kuchaytirish, ta’kidni ifodalash uchun ham har ikkala so‘z keltirilgan. Demak, bu yuklama o‘xshashlik bilan bir qatorda ta’kidni ham ifoda etadi.

Bundan tashqari bu harf sabab ma’nosida ham keladi, misol uchun: ﴿وَانْكِرُوهُ كَمَا هَدَاكُم﴾ (va sizlarni hidoyat qilgani uchun uni eslanglar. Baqara surasi, 198-oyat) (Muhammad ibn Mustafa, 1997:516).

Bu harfning asosiy sintaktik vazifasiga to‘xtalib, olim jar qiluvchi harf sifatida qolgan barcha o‘rinlarda keladi deb, quyidagi misolni keltiradi, u: كـعـصـفـ مـاـكـوـلـ (yeyiladigan sabzavot kabi. Fil surasi, 5-oyat) (Abbas Hasan, 1973:39b).

Bu harf mustaqil so‘z turkumi bo‘lib, «кам hollarda ism bo‘lib ham keladi», deb aytgan edi Sakkokiy. Misol sifatida shoir Ujajning quyidagi baytini keltiradi, u:

يـضـحـكـ عـنـ كـالـبـرـ الـمـنـهـمـ - Kuladilar erituvchi kuchli do‘l kabi (Abbas Hasan. 1973:39b).

Sakkokiy, Axfash, Abu Ali Forisiy, ibn Molik (Muhammad Ali, 1996:626) va ulardan boshqa olimlar she’rda ism bo‘lib kelishini to‘g‘ri hisoblaganlar. Ism bo‘lib kelganda «o‘xshashlik» ma’nosida qo‘llanadi. Ism bo‘lib kelganligi belgisi bu harfdan oldin عن ko‘makchisining qo‘llanishi hisoblanadi. Muhammad Ali Afsh ot kesimli gapning kesim tarkibida kelgan ushbu harfni «o‘xshashlik» ma’nosidagi ism deb aytadi.

birikma olmoshlar bilan حـتـىـ، ڭـ، مـذـ، مـذـ so‘zlar birikmaydi, bu fikrni hamma nahviylar qo‘llab quvvatlaydilar. Sakkokiy fikri ham shunday, lekin u «Mubarraddan boshqa nahviylar fikricha, olmosh bilan birikib kelmaydi», deb aytgan. Shoir Ujajga nisbat beriladigan quyidagi she’r baytini dalil o‘laroq keltiradi (Abbas Hasan. 1973:39b). U quyidagicha:

وـأـمـ أـوـعـالـ كـهـاـ أوـ أـقـرـبـاـ Um Uol (Bani Tamim diyoridagi tepalik) u kabi baland yoki yaqinroq (Abu Bishr Amr ibn Usmon, 1998).

Sibavayhi fikriga ko‘ra ham ڭ harfiga birikma olmoshi qo‘shilmaydi (Abu Abbos Muhammad ibn Yazid Mubarrad, 1994:217). Bu qo‘shilib kelgan holat faqat she’r zaruriyatidan hisoblanadi.

«Mā kaffa» - (ما الكاف) sintaktik vazifadan to‘suvchi «mā» yuklamasi bilan birikib keladi va

shakli (-dek, kabi) bo'ladi. Bu birikmadan keyin jumla keladigan bo'lsa, گ harfining sintaktik vazifasini to'suvchi bo'ladi, misol uchun: عظم على والديه كما تعظيم - الموظف الملك (Ali ota-onasini podshohni xizmatchisi ulug'laganidek ulug'ladi). Jumla emas, so'z keladigan bo'lsa, sintaktik vazifasini «mā kaffa» to'sa olmaydi va گ harfidan keyin qaratqich kelishigi kelishi shart bo'ladi (Muhammad ibn Mustafa, 1997:518).

لام («lām») - اللام tegishlilik (ل), egalik ma'nolarini ifodalaydigan ushbu harf o'ziga ma'no jihatdan bog'langan so'zga qo'shib yoziladi. Misol o'laroq Sakkokiy quyidagi misollarni keltiradi: المال - لزيد (mol Zaydnikidir); - الجل للفرس - (yopg'ich otnikidir) (Abbas Hasan, 1973:39b).

Boshqa harflarga nisbatan ushbu harf ma'no jihatdan sermahsul hisoblanadi. Bu harfning quyidagi ma'nolarini keltirish mumkin:

Qisman egalik (شبہ الملك) ma'nosida bo'lib, bu kabi o'rinda kelganda «nisbat «lām» deb nomlanadi. Bu ma'noda ikkita tub ot o'rtasini bog'laydi, misol uchun: حبل الصان (qo'y arqoni).

Izohlash ma'nosida bo'lib, bunga ko'ra ushbu harf «izohlovchi «lām» deb ataladi. Harfga bog'lanib kelgan so'zni o'zidan avvalgi so'z bilan izohlab keladi. Harfning bu vazifasi sifat darajalari va taajjubni ifodalovchi kategoriyalarida keladi, misol uchun: أخى أرحم لأبى منى (otam uchun akam mendan ko'ra mehribonroq); ما أحسنهم للديانة (ularga diyonat qandayin ham yaxshi!).

Sabab-maqsad ma'nolarida keladi, misol: إنما نطعمكم لوجه الله لا نريد منكم جزاء ولا شكورا (Darhaqiqat, biz sizlarni Alloh rizoligi uchun ovqatlantiramiz. Buning uchun sizlardan mukofot yoki tashakkur xohlasmaymiz. Inson surasi, 9-oyat).

Ta'kid ma'nosida kelib, ziyoda qilingan holda keladi (qarang: 16:472-481). Bu ma'nosni haqida Sakkokiy: «Bu harf Alloh taolo ismi bilan bo'lgan ko'p o'rnlarda taajjub bilan bo'lgan qasamning yuklamasi bo'lib ham keladi. Nasb o'rnida ziyoda va ziyoda bo'limgan hollarda keladi. Masalan: ردد لكم (ortingizga mingashib olgan. Naml surasi, 72-oyat), يا بوس للحرب - يا لزيد (ey Zayd!), jar harfi bo'lib, يا أبا لك (Urushning oqibati qandayin yomon!) - لا أبا لك (sening otang yo'q). Tushirilgan holda ham qo'llaniladi: لا أبوك - (otang yo'q)» deb aytgan (qarang: Abbas Hasan, 1973: 39b).

Oyatdagagi لكم so'zi «sizlar uchun», «sizlarga» ma'nolarida keladi. Oyatga esa ushbu ma'nolar to'g'ri kelmaydi. Keltirilishi boisi «sizlar» so'zi ma'nosini ta'kidlash hisoblanadi. Ushbu jumlani دفکم shaklida ifodalansa edi, ردد لكم shaklidagi ma'no aks etmagan bo'lardi.

Mustahkamlash ma'nosida kelib, gapda qolgan bo'laklardan keyin joylashgan sintaktik vazifa bajaruvchini quvvatlash uchun ziyoda holda sintaktik vazifa bajaruvchi fe'l yoki undan boshqa turkumlar bilan keladi. Masalan: وفي نسختها هدى ورحمة للذين هم لربهم - ير هون (Ularning nusxalarida Robbilaridan haqiqatda qo'rqadiganlari uchun rahmat va hidoyat bor edi. A'rof surasi, 154-oyat); - فَعَالٌ لِمَا يَرِيدُ (Nimasni xohlasa, albatta, qiluvchi Zotdir. Hud surasi, 107-oyat).

إلى (-gacha,-ga) ma'nosida keladi, misol uchun: (بأن ربك أوحى لها) إلها Rabbing unga vahiy yuborgani uchundir. Zalzala surasi, 5-oyat).

على (-ustida, ustiga) ma'nosida keladi, masalan: يخرون للأذقان سجدا (yuzlari ila sajdaga yiqilurlar. Isro surasi, 107-oyat).

في (-da, ichida, ichiga) ma'nosida keladi, misol uchun: - وَنَضَعُ الْمَوَازِنَ الْقَسْطَلِيَّةَ (Biz qiyomat kunida adolat tarozularini qo'yamiz. Anbiyo surasi, 47-oyat).

بعد (-dan keyin) ma'nosida keladi, misol uchun: أقم الصلاة لدلك الشمس إلى غصن الليل (quyosh og'ganidan keyin to tun qorong「isigacha namozni to'kis ado qiling. Isro surasi, 78-oyat).

Yordamga chaqirish ma'nosida ham qo'llanadi. Bu ma'noda kelganda kasrali harf fathaliga o'zgaradi. Kasrali bo'lib kelgani yordamga muhtoj bo'luvchi tarkibida kelsa, fathali bo'lgani yordam ko'rsatuvchi tarkibida bo'ladi, masalan: يا لعليشير عبد العزيز (Ey, Alisher Abdulazizga yordam!).

Natija, oqibat ma'nosida keladi, bu ma'noda kelganda u «oqibat «lām»i» deb ataladi, misol uchun: فال نقطه ءال فرعون ليكون لهم عدوا وحزنا (Uni Fir'avn oilasi o'zları uchun (oxir-oqibat) dushman va g'am-g'ussa bo'lishi uchun tutib oldilar. Qasos surasi, 8-oyat).

Ma'lum berish ma'nosidagi fe'llardan keyin kelib, yo'naltirilgan shaxs bilan bog'lanib keladi, misol uchun: فسرتم لنا - (unga aytishdi); قالوا له (bizga bayon qilib berdingiz).

لام (لا) - هؤلاء الطلاب لستين (الوقت keladi, misol uchun: bu talabalar ikkinchi kursdir) (Jamaliddin ibn Hisham, 1990:144-149b).

Demak, bu harf qo'llanish o'rniga ko'ra turli ma'nolarni ifodalab keladi. Ziyoda shaklda qo'llansa ham, muayyan ta'kid ma'nosini o'z ichiga olgan hisoblanadi. Turli ma'nolarda qo'llash Qur'on va she'r baytlarida ko'p kuzatiladi. Odatiy holda bu harf «tegishlilik», «oidlik» ma'nolarida, fe'l tarkibida esa, maqsad, sabab ma'nolarini ifoda etadi. Ta'kid ma'nosida har ikkala turkum tarkibida qo'llanadi.

Arab tilida qasamni ifodalash ma'lum sintaktik qoidalarni qamrab olib, uni ifodalovchi harflar mavjud. Shunday harflardan biri bu - («qasam ifodalovchi tā») hisoblanadi. Bu harfning sintaktik xususiyatlari haqida Sakkociy: - (الباء « - التاء ») («qasam ifodalovchi tā») atoqli otlar bilan ishlatalib, qasam ma'nosini ifodalaydi. Bu faqat Alloh taolo ismigagina qo'shiladi. Axwash تربَّى عَلَى الْأَنْوَافِ - (الباء « - الكعبَة ») «Ka'ba robbisiga qasam»ni rivoyat qilgan» deb aytgan edi (Abbas Hasan, 1973:39b).

Ushbu harf faqatgina Allohga ishora qiluvchi so'zlarga qo'shilishi bilan xarakterlidir. Sakkociy, Axwash, Xalil ibn Ahmad (Muhammad ibn Abdulloh. (nashr yili ko'rsatilmagan: 187) mazkur yuklama Alloh lafzi bilan qo'llanishini aytgan. Shuningdek, Qur'on oyatlarida ham shunday keladi, misol uchun: وَتَالَّهُ لَا يَكِيدُنَّ (Allohga qasamki, buni, albatta, bilaman), «qasam ichiman» ma'nosidagi fe'l tushib qolgan holatda, shunday bo'ladi: بَالَّهِ لَا يَعْلَمُ مَا بَعْدَهُ (Allohga qasamki, buni, albatta, bilaman).

Sakkociy va boshqa olimlar - («qasam ifodalovchi tā»)ni harfning bu turi tarkibida keltirishlari u qo'shilgan so'z qaratqichda kelishiga - (الباء « - التاء ») (qasam ifodalovchi tā) sabab bo'lganligi uchundir.

O'zi ma'no jihatdan bog'langan so'zga qo'shib yoziluvchi harflardan biri - (الباء « - الباء ») bo'lib, - (الباء « - الباء ») so'zlarni bog'lash uchun qo'llaniladi, masalan: - به عیب - unda ayb bor. Bu harf qasam, atf (uyushiq bo'lak), yordam ma'nolarida, عن - («haqida, -dan»), مع - («da, ichida»), في - («bilan, bilan birga») ma'nolarini ham ifodalaydi. Masalan: - فلان بالبلد - (falonchi yurtdadir) misolini keltirgan edi. Yana shunday ma'noga misol o'laroq: - ولقد نصركم الله بدر وأنتم أذلة (Alloh sizlarga Badrda oz bo'lsangiz ham g'alaba berdi. Oli Imron surasi, 123-oyat). Shuningdek, til sohiblarining iboralarida ham bu ma'noda ko'p qo'llanadi, misol uchun: - به داء ظبي - (unda kiyik kasalligi bor. Bu ibora umuman kasalligi yo'q kishiga nisbatan qo'llanadi. Kiyik hayvonlar orasida kasallikka kam uchraydigan jonzot bo'lganligi uchun ushbu iborada keltirilgan) (Hasan Abbas, 2000:12).

Bu harf yaqinlik, sabab-maqsad, vosita, qasam, evaz, payt holi, birgalik, ta'kid ma'nolarini ifodalashda xizmat qiladi. Shuningdek, fe'l bilan birga kelib, o'timsiz fe'lga o'timlilik ma'nosini berishda ham qo'llanadi.

Ma'no jihatdan yoki haqiqiy jihatdan yaqinlik ma'nosida, kimsa yoki narsaga bevosita juda yaqin masofada bo'lishni ifoda etadi, misol uchun: haqiqiy ma'noda (onam qo'li bilan boshimni siladi), ma'no jihatdan - مررت بالجامعة (universitetdan o'tdim (unga juda yaqin masofadan)).

Vosita, yordam ma'nosida kelib, biror ish harakat nimanidir yordami bilan amalga oshganligini bildiradi. Masalan: - كتبت على اللوح بالطباشير (doskaga bo'r bilan yozdim); - نجحت بدعاء والدي (ota-onam duosi bilan muvaffaqiyatga erishdim).

Sabab-maqsad ma'nosida ish harakatdan nima uchun yoki nima sababdan sodir bo'lganligi yoki

bo'lishini ifodalaydi. Misol uchun: فشل كثيير من الطلاب - (ko'pgina talabalar imtihondan bilimsizligidan o'tolmaydi).

O'timsiz fe'l bilan birga kelib, unga o'timlilik ma'nosini ifodalashda bu harf qo'llanadi, misol uchun: جاء - (keldi) bo'lsa (olib keldi) shaklida bo'ladi. سرى - (tunda sayr qilmoq) ma'nosida qo'llanadi, «sayr qildirmoq» ma'nosida ushbu harf bilan, misol uchun: سبانح الذي أسرى بعده ليلاً من المسجد الحرام إلى المسجد الأقصى (tunda bandasini Masjid Haromdan Masjid Aqsoga sayr qildirgan Zot ayb-nuqsonlardan pokdir. Isro surasi, 1-oyat).

Qasamni ifodalovchi fe'llar bilan birga keladi, fe'l tushib qolgan o'rinnarda bu harf tushib qolmaydi, masalan: أقسم بالله لا أعلم هذا (Allohga qasamki, buni, albatta, bilaman), «qasam ichiman» ma'nosidagi fe'l tushib qolgan holatda, shunday bo'ladi: بالله لا أعلم هذا (Allohga qasamki, buni, albatta, bilaman).

Qolgan olimlardan farqli ravishda Sakkociy fikriga ko'ra bu harf qasamni ifodalashda ham tushib qolishi mumkin. Bu kabi shaklga quyidagicha misol keltiradi, u: - اللہ لأفعلن (Allohga qasamki, buni bajaraman).

Biror narsani olishda ikkinchi bir narsa evaziga amalga oshirilgan o'rinnarda ham bu harf evaz bo'lgan narsa tarkibida ishtirok etadi. Masalan: أخذت الكتاب - ب ساعتي (soatim evaziga kitob oldim).

Payt holi bo'lib, - (da, ichida) ma'nosida keladi. Sakkociy bu ma'noga (falonchi yurtdadir) misolini keltirgan edi. Yana shunday ma'noga misol o'laroq: - ولقد نصركم الله بدر وأنتم أذلة (Alloh sizlarga Badrda oz bo'lsangiz ham g'alaba berdi. Oli Imron surasi, 123-oyat). Shuningdek, til sohiblarining iboralarida ham bu ma'noda ko'p qo'llanadi, misol uchun: - به داء ظبي - (unda kiyik kasalligi bor. Bu ibora umuman kasalligi yo'q kishiga nisbatan qo'llanadi. Kiyik hayvonlar orasida kasallikka kam uchraydigan jonzot bo'lganligi uchun ushbu iborada keltirilgan) (Hasan Abbas, 2000:12).

- (bilan birga) ma'nosida kelishiga Sakkociy دخلت عليه بثياب السفر - (uning oldiga safar kiyimi bilan kirdim) misolini keltirgan edi (Muhammad ibn Mustafa. 1997:490-96).

Ta'kid ma'nosida, ziyoda bo'lib kelgan o'rni haqida «Raf» o'rniда ziyoda yoki ziyoda bo'lman holda keladi. Misol uchun: بحسب زيد - (Senga kifoya Zayd); nasb o'rniда ziyoda bo'lib kelgan holat: ليس زيد (Zayd turuvchi emas)» deb aytgan edi Sakkociy. Bu keltirilgan o'rinnarda ushbu harfni qo'llamasda ham ko'zlangan ma'no hosil bo'ladi. Keltirishdan maqsad esa, ta'kidni ifodalash hisoblanadi. Misol uchun: ألم

- يعلم بأن الله يرى (Bilmaganmiki, Alloh ko‘radi. Alaq surasi, 14-oyat). Bu oyatda ham ushbu harf ma’noni kuchaytirish uchun kelgan.

Bosh kelishikda kelishi kerak bo‘lgan gap bo‘lagi bilan kelsa, Sakkokiy ta’biri bilan aytganda «raf’ o‘rnida», tushum kelishigida kerak bo‘lgan gap bo‘lagiga qo‘silsa (nasb o‘rnida), ziyoda holda kelib, ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Sakkokiy qaratqich kelishigi o‘rnida ham ziyoda bo‘lishi mumkinligi haqida: «Ba’zilar fikriga ko‘ra jar o‘rnida ziyoda holda Asvad ibn Ya’far she’rini misol keltirishadi:

فَاصْبِحْ لَا يَسْأَلُهُ عَنْ بِمَا (Undagi narsa haqida o‘zidan so‘rashganlarida tong ottirishgan edi)» deb aytgan (Abbas Hasan. Nahv vafi, 1973:39).

Demak, asosiy ma’nosи «bilan, vositasida» bo‘lgan ushbu harf muayyan o‘rinlarda boshqa ma’nolarni ham ifoda etar ekan. Mazkur ma’nolar fe’l bilan xoslangan o‘rinlarda ham kelib, uni o‘timsizlikdan o‘timlilikka o‘tishida vosita hisoblanadi.

Bir harfdan tashkil topgan yordamchi so‘zlarning oxirgi ikkitasi qasamni ifodalashda qo‘llanib, o‘zi bog‘langan so‘zni qaratqichda keltiradi. Bular haqida Sakkokiy: - الْمِيمُ - («qasamni ifodalovchi mīm») qasam uchun qo‘llaniladi. ﴿الله لا يفعل﴾ - Allohga qasamki, albatta bajaraman. Bu harf ham faqat Alloh taolo ismi bilan ishlatalidi. Ehtimol bu - يَمِينٌ - (qasam) so‘zining qisqarganidir,» ikkinchisi haqida ﴿الوَّا﴾ - («qasam ifodalovchi vāv») qasam uchun qo‘llanilib, olmoshlar bilan birga kelmaydi,» deb aytgan (Abbas Hasan. Nahv vafi, 1973:39).

Qisqa bayon qilinsa-da, muhim qoidalarni qamrab olgan bu ta’rif boshqa olimlarning ta’riflaridan farq qiladi. Qasamni ifodalovchi «mīm» kasrali holda qo‘llanib, olim fikricha - (qasam) so‘zining ikkinchi harfi hisoblanib, qolgan harflari tushib qoldirilgan. Olimning bu qarashi Kufa maktabi qarashlariga yaqin bo‘lib, bu maktab tarafdarlari ham qasamni ifodalovchi mīm mazkur so‘zning ko‘plik - أَيْمَنٌ - (qasamlar) shaklidan olingan degan fikrni qo‘llab quvvatlaydilar. Mahmud Zamaxshariy bu so‘zni ﴿إِيمَن﴾ - (qasam) so‘zidan olingan deb, kasra va ڏamma bilan kelgan shakllarini yozgan. Ba’zi olimlar esa, bu qasamni ifodalovchi «vāv» bilan almashagan «mīm» deb aytishadi. Chunki, bu ikki harf hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra bir-biriga yaqin hisoblanadi (Abu Bishr Amr ibn Usmon, 1998:493-495).

Sakkokiyning kasra bilan mazkur harfni keltirishi ﴿ب﴾ - (bilan, vositasida) harfi ham bir o‘zi kelgani holda kasrali bo‘lgani uchun shu shaklda keltirgan (Abbas

Hasan. 1973:39b). Qasamni ifodalovchi «mīm» ning aslidan bunchalik qisqarib, qolgan harflari tushib qolishi turli xil qarashlar yuzaga kelishi sabab bo‘ldi. Bunday kelishiga sabablardan biri ko‘p qo‘llanganidan deb aytish mumkin.

Sakkokiy yoki Mahmud Zamaxshariy keltirgan shakllar turlicha bo‘lsada, ular «qasam» ma’nosini ifoda etadi.

XULOSA

Sakkokiy o‘zidan keyingi so‘zni qaratqich kelishigida keltiruvchi so‘zлarni tarkibidagi harflar soniga qarab guruhlarga bo‘lib, ularni keng, batafsil, o‘rni kelganda muxtasar tarzda bayon qildi. Bunday bayon usulini boshqa tilshunoslarda uchratish qiyin. Sakkokiyning eng katta yutug‘i bu mavzuni tizimlashtirib bayon qilishidir. Bu uslub orqali eng kichik ma’lumot ham batafsil yoritilgan. Bu mavzuda yoritilgan so‘zlearning ma’no xususiyatlari, sintaktik vazifalari, ma’nosini saqlagan holda jumla tarkibida tushib qolishi aniq dalillar asosida bahs qilingan. Ularning eng bahsli hisoblangan turlari borasida Sakkokiy o‘z qarashlarini bildirib o‘tgan.

Bitta harfdan tashkil topgan yordamchi so‘zlar o‘zi ma’no jihatdan bog‘langan so‘zlar bilan qo‘shilib, ba’zilari ayri yozilishi mumkin. Jumladan, ﴿ك﴾ - (-dek, kabi), ﴿ل﴾ - (-ning, uchun), ﴿ب﴾ - (bilan, vositasida), ﴿ت﴾ - (qasamni ifodalovchi tā) kabi ko‘makchilar qo‘shilib yoziladi. Qasamni ifodalovchi “mīm” boshqa so‘zning tarkibiy qismi hisoblanganligi uchun ham o‘zi ma’no jihatdan bog‘langan so‘zlarga qo‘shib yozilmassa, shu vazifadagi “vāv” ikki ko‘rinishli harflardan biri bo‘lgani uchun qo‘shilmay yoziladi.

Bitta harfdan tashkil topgan yordamchi so‘zlar hajman kichik bo‘lsada, ko‘p ma’nolarga ega hisoblanadi. Ular qanday ma’no anglatayotganligini konteksdan bilib olinadi. Bitta harfdan tashkil topgan yordamchi so‘zlar arab tilida bu darajada faol bo‘lishi mazkur tilda kelishiklar soni kam ekanligi bilan xulosa qilish mumkin.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abbas Hasan. (1973). Nahv vafi. Juz saniy. Misr: Dar ma’arif.
2. Abdurahman ibn Abdullah. (1992). Nata’ij fi nahv. Bayrut.
3. Abu Abbas Muhammad ibn Yazid Mubarrad. (1994). Tahqiq Muhammad Abduxoliq. Kitab Muqtadab. Qohira: Matabi’ Ahram.

4. Abu Bishr Amr ibn Usmon. (1998). Kitab Sibawayh. Juz arba'. Qohira: Maktaba Xanjiy.
5. Adil Xalaf. (1994). Nahv lug'a arabiyya. Qohira: 246 b.
6. Ali Rida. (2000). Muxtar fi qava'id. Bayrut: Maktaba dar sharq.
7. Fadil Salih. (nashr yili ko'satilmagan). Ma'ani nahv. Juz salis. Ummon: Dar fikr.
8. Hasan Abbas. (2000). Huruf ma'ani. Dimashq.
9. Jamaliddin ibn Hisham. (1990). Sharh qatr nada va ball sada. Dimashq.
10. Mahmud ibn Umar Zamakhshariy. (2013). Al-mufassal fi san'at al-e'rob. Qohira.
11. Mahmud ibn Umar. Mustaqso fi amsal. (nashr yili ko'satilmagan). Juz saniy. Bayrut, Dar sadir.
12. Imom Aba Ya'qub Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad Sakkaki. Miftah al-ulum. Anqara Milli Kütüphanesi. Qo'lyozma 26 Hk 192 raqam.
13. Muhammad Ali. (1996). Muayyin talib fi qava'id nahv. Suriya, Dar sharq va arabiyy.
14. Muhammad As'ad Nadiriy. (1997). Nahv lug'a arabiyya. Bayrut.
15. Muhammad ibn Abdulloh. (nashr yili ko'satilmagan). Sharh tas'hil li ibn Malik. Juz salis.
16. Muhammad ibn Mustafa. (1997). Sharh qava'id I'rab. Dimashq.
17. Mustafa G'aloyiniy. (2010). Jami' durus arabiyya. Juz salis. Bayrut.
18. Qosim ibn Ali. (1991). Sharh malha I'rab. Irbad.
19. Xalil ibn Ahmad. (2001). Kitab jumal fi nahv. Muassasa Risala. Yaish ibn Ali ibn Yaish. Sharh Mufassal. Juz arba'. Bayrut.

REFERENCES

1. Abbas Hasan. (1973). Nahw Wafi. Juz thani. Egypt: Dar ma'arif.
2. Abdurahman ibn Abdullah. (1992). Nata'ij fikr fi nahw. Bayrut.
3. Abu Abbas Muhammad ibn Yazid Mubarrad. (1994). Tahqiq Muhammad Abdulkhalil. Kitab Muqtadab. Cairo: Matabi' Ahram.
4. Abu Bishr Amr ibn Uthman. (1998). Kitab Sibawayh. Juz arba'. Cairo: Maktaba khanji.
5. Adil Khalaf. (1994). Nahv lug'a arabiyya. Cairo: 246 b.
6. Ali Rida. (2000). Muxtar fi qava'id. Beirut: Maktaba dar sharq.
7. Fadil Salih. Ma'ani nahw. Juz thalith. Umman: Dar fikr.
8. Hasan Abbas. (2000). Huruf ma'ani. Damascus.
9. Jamaluddin ibn Hisham. (1990). Sharh qatr nada wa ball sada. Damascus.
10. Mahmud ibn Umar Zamakhshariy. (2013). Al-mufassal fi san'at al-i'rab. Cairo.
11. Mahmud ibn Umar. Mustaqsa fi amsal. Juz thani. Beirut, Dar sadir.
12. Imom Aba Ya'qub Yusuf ibn Abu Bakr ibn Muhammad Sakkaki. Miftah al-ulum. Anqara Milli Kütüphanesi. Manuscript 26 Hk 192.



**ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНинг
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ**

Мазкур нашр олий ўкув юрглари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг профессор-ўқитувчилари, докторантлари,
мустакил тадқиқотчилари, магистрантлари,
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتریدیۃ - Матуридизм

4/2023

Бош мұхаррір: Ж.Каримов

Мұхаррір: З.Фахриддинов

Нашир учун масъул: З.Арслонов

Чет тилларидаги матнлар мұхарріри: О.Сотволдиев

Дизайнер-саҳифаловчи: З.Ғуломов

Манзилимиз: Ўзбекистон халқаро ислом академияси Имом Мотуридий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.

Тел: (+99871) 244-35-47, (+99871) 244-35-36. **Web:** www.maturidijournal.uz

E-mail: info@moturidiyuz

Нашриётнинг лицензия рақами AI № 0011. 06.05.2019 йил.
Босишига 28.12.2023 йил рухсат этилди. Бичими $60 \times 84 \%$.
Ризограф усулда босилди. Шартли босма табоғи 10,2.
Нашр табоғи 10,4. Буюртма № 20.
Баҳоси шартнома асосида.

«Ўзбекистон халқаро ислом академияси»
нашриёт-матбаа бирлашмаси босмахонасида чоп этилди.
100011, Тошкент. А.Қодирий кўчаси, 11.



IMOM MOTURIDIY

XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CENTER

المركز الدولي للبحوث العلمية